



BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI MAHALLIY TARIXIY MATERIALLAR VOSITASIDA VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH JARAYONI MODELINI TAKOMILLASHTIRISH

Kosbergenov R.M.

Ajiniyoz nomidagi NDPI assistent o‘qituvchisi

Tayanch so‘zlar: tarix, ta’lim, tarbiya, vatanparvarlik, pedagogik mahorat, metod, qadriyat, nazariya.

Ключевые слова: история, образование, воспитание, патриотизм, педагогическое мастерство, метод, ценность, теория.

Key words: history, education, training, patriotism, pedagogical skill, method, value, theory.

Bugungi yangi O‘zbekistonda har tomonlama sog‘lom, intellektual jihatdan baquvvat, ijodkorlik, bunyodkorlik imkoniyatlari keng barkamol millatni vujudga keltirish choralari ko‘rilmogda.

Ma’lumot olish, to‘plash, saralash va tarqatish imkoniyatlari aqlga sig‘maydigan darajada kengayib ketdi. Kichkinagina qo‘l telefonining bitta murvatini bosish bilan Er sharining xohlagan nuqtasiga axborot yuborish mumkin. Ana shunday tezkor axborot almashishi jarayonida axborotlarni tanlash va saralash qudratiga ega bo‘lgan kuchli milliy mentalitet, milliy tafakkur, milliy ruhiyat, ma’naviy iroda zarurligiga ehtiyoj sezamiz.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni [1], O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining vatan tarixini o‘rganish va undan saboq olish haqidagi fikrlari tarix fani o‘qitish metodikasi uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Biz axborot xuruji davrida yashayapmiz, bir-biriga zid, bir-birini inkor qiladigan, milliy madaniyatlarani, qadriyatlarni poymol qiladigan turli axborotlar ko‘paymogda.



Prezidentimiz tarixni o'rganishning ahamiyati haqida: "Biz yoshlarimizni tarixdan saboq olish, xulosa chiqarishga o'rgatishimiz, ularni tarix ilmi, tarixiy tafakkur bilan qurollantirishimiz zarur." [2,7] dedilar.

Ta'lim jarayonida Bo'lajak o'qituvchilarning tarixiy mavzularga, tarixiy voqealarga, taniqli harbiylarga, davlat arboblari shaxsiy munosabatini qat'iy shakllantirish maqsadida tashabbuskorlik, bilim, ijodiy faoliyatni rag'batlantirishning turli faol shakllari va usullarini qo'llash o'ta muhim samara beradi. B.Rahimov, N.Narziyevalarning "Pedagogik mahorat" o'quv qo'llanmasida dars o'tish an'anaviy va noan'anaviy metodlarga bo'lingan.[3, 102]

Bugungi kunda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash nafaqat ta'lim-tarbiya jarayonida tarixni o'rganish, balki bu jarayonni rag'batlantiradigan yangi manba va omillarni izlash kabi an'anaviy, o'zini oqlagan yo'nalishni mustahkamlashda ham aniq maqsadga yo'naltirilgan sa'y-harakatlarni talab etadi.

Ta'lim standartlarida belgilangan zamonaviy talablar o'qituvchilarni nafaqat o'quv ma'lumotlarini taqdim etishga, balki ularni kundalik hayotda amalda qo'llash usullarini o'rgatishga ham undaydi.

Vatanparvarlik ta'limining shartlaridan biri o'qituvchida doimo mavzuga oid qo'shimcha tarixiy materiallar bo'lishi lozim. Qiziqishni kuchaytirish uchun o'qituvchi Bo'lajak o'qituvchilar bilan birgalikda hujjatlar, jurnalistika, xotiralar, lug'atlar, entsiklopediyalar va boshqa manbalar bilan ishlay olsa, ya'ni ushbu manbaashunoslik usulini qo'llash Bo'lajak o'qituvchilarning mavzuga bo'lgan qiziqishini shakllantirishga, hujjatlar va qo'shimcha adabiyotlarni mustaqil o'rganish ko'nikmalarini rivojlantirishga, tarix bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirishga yordam beradi.

"Bugun dunyoda insonning ongi va qalbini egallash uchun kurash tobora kuchayib bormoqda. Shu yo'lda harakat qilayotgan kuchlar o'z maqsadiga erishish uchun targ'ibotning barcha usullaridan foydalanmoqda. Shunday bir vaziyatda jamiyatimizni ma'naviy tahdidlardan himoya qilish borasidagi ilmiy-amaliy tadqiqotlarni, tahliliy va targ'ibot materiallarini tayyorlash usulini tubdan qayta ko'rib chiqishimiz zarur. Umuminsoniy, milliy va diniy qadriyatlarimizga bepisandlik bilan qarash holatlariga qarshi kurashishning metodologik asoslarini shakllantirish lozim." [1,18]

Bo'lajak o'qituvchini tarixiy materiallar vositasida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash – buyuk ajdodlarimizdan bizga meros bo'lib qolgan – muqaddas xazinani o'rganish, ularning hayot yo'lidan ibrat olishga o'rgatish va ularga munosib vorislar bo'lib etishishga rag'batlantirish, Vatanimizning ertangi



kuniga mas'ullikni tarbiyalash va buyuk kelajakni o'z qo'llari bilan yaratishga ruhlantirish demakdir.

Ilmiy izlanishlar va tarixni o'qitishda ko'p yillik tajriba shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda o'qituvchining asosiy vazifasi sinfda ijodiy muhit yaratishdir, bundan tashqari, o'qituvchi bu jarayonning psixologik mohiyatini, birinchi navbatda, Bo'lajak o'qituvchilarni bilimga da'vat qilish, bolaning intellektual salohiyatiga hurmat ko'rsatish kabi tushunishi kerak.

Tarix o'qituvchisi faoliyatida asosiy vazifa, bizning fikrimizcha, interaktiv ta'lim usullari va shakllarini maqbul qo'llash asosida bo'lajak o'qituvchilarning tarix darslarida ijodiy qobiliyatlarini har tomonlama rivojlantirishga ko'maklashishga qaratilgan harakatlar strategiyasi va taktikasini shakllantirishdir.

Bo'lajak o'qituvchining kundalik faoliyatida maktab ko'p vaqtini oladi, ta'lim maskanida olib borilayotgan tizimli tarbiyaviy ishlar bolalarning ijtimoiy funksiyalarini amalga oshirishning yuqori samaradorligini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, bu jamiyatning barqaror rivojlanishida va davlat oldida turgan vazifalarni muvaffaqiyatli hal etishda muhim omil hisoblanadi.

Zamonaviy tarix o'qituvchisining vazifasi sinfda mavjud bo'lgan barcha Bo'lajak o'qituvchilar diqqat-e'tiborlarini ularga nisbatan darajalash usulini qo'llab, bir vaqtda ularning hammalari uchun maqbul bo'lgan tarixiy materialni bayon qilish bilan, ikkinchi tomondan har bir Bo'lajak o'qituvchining qiziqishlarini hisobga olgan holda, unga alohida yondashishni talab qilmoqda.

Tadqiqot natijalari Bo'lajak o'qituvchilarni mahalliy tarixiy materiallar vositasida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayonini takomillashtirish quyidagi bosqichlarda amalga oshirilishi lozimligini ko'rsatdi: ijtimoiy moslashuv: ijtimoiy vaziyatlarda o'z o'rnini aniqlay olish, vaziyatga moslashuvchanlik va safarbarlik; loyihaviy: ijtimoiy faoliyat jarayonida o'z-o'zini anglash, individual xulq-atvor strategiyalarini tanlay olish; interiorizatsiya: ijtimoiy faoliyatning asosiy me'yorlarini qabul qilish va faoliyatda namoyon etish.

Tadqiqot natijalari asosida Bo'lajak o'qituvchilarni mahalliy tarixiy materiallar vositasida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayonini takomillashtirishning ijtimoiy-pedagogik modeli aniqlashtirildi (1.1-jadvalga qarang).




Bo'lajak o'qituvchilarni mahalliy tarixiy materiallar vositasida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayonini takomillashtirish darajasini aniqlash mezonlari

№	Turlari	Mazmuni
1	OTMlarida bo'lajak o'qituvchilarni mahalliy tarixiy materiallar vositasida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayonini takomillashtirish	bo'lajak o'qituvchilarni mahalliy tarixiy materiallar vositasida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayonini takomillashtirish, bunda bo'lajak o'qituvchi yoshlarning o'z vatani, tug'ilib o'sgan yurtiga muhabbati va sadoqatini shakllantirish hamda barcha kishilar, xalq, millatlar uchun umumiy bo'lgan, asrlar davomida sayqallanib kelgan umuminsoniy tuyg'u, ma'naviy qadriyatlarni hurmat qilishga va ularga amal qilish o'rgatish, bo'lajak o'qituvchi yoshlarning o'z vatani taqdiri bilan bog'liq ijtimoiy rivojlanish, xalqlarning o'zlari yashayotgan hududning daxlsizligi va mustaqilligi yo'lidagi kurashi jarayonida takomillashib kelgan his-tuyg'ularni tarbiyalash, Vatanning o'tmishi va hoziri bilan faxrlanish, uning manfaatlarini himoya qilish kabi ko'nikmalarni shakllantirish
2	Bo'lajak o'qituvchilarni mahalliy tarixiy materiallar vositasida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayonini takomillashtirishning samaradorligini oshirish uchun bilimlarni takomillashtirish.	
3	Bo'lajak o'qituvchilarni mahalliy tarixiy materiallar vositasida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayonini takomillashtirish bo'yicha bilimlarini rivojlantirish.	
4	Bo'lajak o'qituvchilarni mahalliy tarixiy materiallar vositasida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayonini takomillashtirishga oid olingan amaliy ko'nikmalarni amaliyotga qo'llash qobiliyati.	
5	OTMlarida bo'lajak o'qituvchilarni mahalliy tarixiy materiallar vositasida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayonini takomillashtirishda shaxsiy namuna bo'lish	
6	Bo'lajak o'qituvchilarni mahalliy tarixiy materiallar vositasida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayonini takomillashtirishda etakchilik qobiliyatini shakllanishi.	
7	Bo'lajak o'qituvchilarni mahalliy tarixiy materiallar vositasida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayonini takomillashtirishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning mazmunini bilish va ularga amal qilish ega bo'lish	
8	Bo'lajak o'qituvchilarni mahalliy tarixiy materiallar vositasida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayonini takomillashtirishda vatanga muhabbat hissini shakllantirish	

Bizning tadqiqotimizda bo'lajak o'qituvchilarni mahalliy tarixiy materiallar vositasida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayonini takomillashtirishni diagnostika qilish tamoyillarini metodologik asoslash quyidagi ikki asosga tayanadi:



1) Bo'lajak o'qituvchilarni mahalliy tarixiy materiallar vositasida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayonini takomillashtirishda vatanparvarlikni



1.1-rasm. Bo'lajak o'qituvchilarni mahalliy tarixiy materiallar vositasida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayonini takomillashtirishning ijtimoiy-pedagogik modeli.

yuqori darajadagi yaxlit psixologik tizimni o'zida aks ettiruvchi shaxs tarzida ko'rib chiqish;



2) shaxsni rivojlantiruvchi sifat tarzida uning vatanparvarligini dinamik nazariyasi bilan bog'liqligini asoslash.

Odatda, vatanparvarlikni tashxis etish OTMLari, sinf (guruh), to'garaklarda tadbiiq etiladigan maxsus ishlab chiqilgan o'quv va rivojlantiruvchi dasturlar doirasida alohida bo'lajak o'qituvchilarning ta'lim-tarbiyasi uchun yaratilgan shart-sharoitlarda o'tkaziladi. Diagnostik tekshiruv bo'lajak o'qituvchining mazkur dasturlar doirasidagi o'zlashtirish samaradorligi va ko'plab o'qituvchilar uchun o'ziga xos baholash sifatini ham o'zida aks ettiradi.

O'quv hamda darsdan tashqari japyayonda bo'lajak o'qituvchilarni mahalliy tarixiy materiallar vositasida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayonini takomillashtirishning 2021-2022, 2022-2023, 2023-2024-o'quv yillapidagi mavjud xolat o'rganib chiqildi. Bo'lajak o'qituvchilarni mahalliy tarixiy materiallar vositasida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayonini takomillashtirish jaryoni tadqiqotlap tahlili acocida, bo'lajak o'qituvchilarni mahalliy tarixiy materiallar vositasida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayonini takomillashtirish darajalapi va mezonlapi takomillashtirildi. Mezonlar bo'lajak o'qituvchlar o'rtasida vatanparvarlikning shakllanishiga doir darajalarini asoslashga imkon berdi.

Mazkur asoslarga tayangan holda, vatanparvarlikni tashxis etishga doir quyidagi eng muhim yondashuvlar ajratib olindi:

1) Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv. Tekshiruv yosh rivojlanish davrlari, intellekt va affektning o'zaro aloqadorligi va o'zaro harakati, o'z-o'zini anglashning o'ziga xosligi, emotsional-irodaviy va kommunikativ sohalarning rivojlanish darajalari bilan bog'liqlikda shaxs rivoji uchun xizmat qiladigan o'zaro aloqador sifatning yaxlit tizimini o'rganishga yo'naltirilgani;

2) dinamik yondashuv (o'rganishning uzoq muddat davom etishi, sinalluvchilarni turli vaziyatlardagi xulq-atvorini o'rganish uchun vaqti-vaqti bilan kuzatishlarga murojaat qilish, uning rivojlanishi dinamikasini o'rganish, psixologik to'siqlarni bartaraf etish vositalarini aniqlash). Dinamik yondashuv asosida diagnostik tanlovdan diagnostik rivojlantirishga o'tish paradigmasini almashtirish bilan shartlangan vatanparvarlikning dinamik nazariyasi yotadi;

3) prognostik yondashuv- tekshiruv natijasi sifatida nafaqat insonning umumiy va psixik rivojlanish darajasi, umumiy va maxsus qobiliyatlarning rivojlanishi, vatanparvarlik darajasini aniqlash, balki uning potentsial imkoniyatlarini aniqlashga yo'naltirilgan shaxsiy rivojlanishini ham prognoz qilish masalasini tadqiq etishga asoslangan yondashuv.

Yuqorida bayon etilganlardan kelib chiqqan holda, Bo'lajak o'qituvchilarni mahalliy tarixiy materiallar vositasida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash



jarayonini takomillashtirish tamoyillari sifatida quyidagilarni keltirib o'tish mumkin:

- turli axborot manbaalaridan foydalanish va vatanparvarlik doirasini qamrab olish asosida bola xulq-atvori va faoliyatining turli jihatlarini baholash tavsifga egaligi;
- identifikatsiyaning uzoq muddatliligi (sinaluvchilarni turli vaziyatlardagi xulq-atvorini o'rganish uchun vaqti-vaqti bilan kuzatishlarga murojaat qilish);
- bo'lajak o'qituvchilarni mahalliy tarixiy materiallar vositasida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayonini takomillashtirishda Bo'lajak o'qituvchining qobiliyati va qiziqishlariga maksimal darajada mos keluvchi xulq-atvorini tahlil etish (bolani maxsus tashkil etilgan predmetli-o'yinli mashg'ulotlarga, faoliyat sohasiga mos keluvchi turli ish shakllariga jalb etish);
- bo'lajak o'qituvchilarni mahalliy tarixiy materiallar vositasida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayonini takomillashtirishda aniq rivojlantiruvchi ta'sirga ega trening metodlaridan foydalanish, Bo'lajak o'qituvchini psixologik to'siqlardan himoyalash;
- bo'lajak o'qituvchilarni mahalliy tarixiy materiallar vositasida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayonini takomillashtirishda faoliyat sohasi bilan bog'liqlikda vatanparvarlikni baholashga ekspertlar va yuqori malakali mutaxassislarni jalb etish;
- bo'lajak o'qituvchilarni mahalliy tarixiy materiallar vositasida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayonini takomillashtirishda Bo'lajak o'qituvchining real vaziyatlardagi xulq-atvorini baholashda samarali natijalarga erishish imkonini beradigan psixodiagnostik metodlarga tayanish.

4. OTMlarida bo'lajak o'qituvchilarni hozirgi davrdagi ijtimoiy-ma'naviy vaziyatdan kelib chiqib, vatanparvarlik ruhida tarbiyalashni takomillashtirishga qaratilgan ta'lim-tarbiyaning yangi modelini ilmiy-pedagogik asoslari ilgari surildi. Bu borada ta'lim tizimida Bo'lajak o'qituvchilarga qaratilgan vatanparvarlik ta'limi, tarbiyasi va targ'ibotiga yangicha yondashuvni olib kirishga qaratilgan ma'naviy-mafkuraviy targ'ibot-tashviqot ishlari, uni amalga oshirishning amaliy mexanizmlarini yanada takomillashtirishni taqozo etadi.

5. Xalq ta'limi tizimida bo'lajak o'qituvchilarni mahalliy tarixiy materiallar vositasida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash da zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan zamonaviy va faol o'qitish metodlarini qo'llash uslublari ishlab chiqilmaganligi aniqlandi. Pedagogik



jarayonda Bo'lajak o'qituvchilarda vatanparvarlik tuyg'usi chinakam e'tiqodga va aqidaga aylanishi uchun ularga tarixiy shaxslarning vatanparvarligi, vatan oldidagi qahramonligini o'rgatish, psixologik ta'sir ko'rsatib mardlik va jasorat sifatlarini rivojlantirish zarurligi qayd qilindi.

Haqiqatan yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash muammosi eng qiyin, dolzarb va ahamiyatli masalaga aylangan. "Ommaviy madaniyat", global dunyo mafkurasi yoshlarning eng himoyasiz qismi bo'lgan-Bo'lajak o'qituvchilarni allaqachon qamrab olgan. Aynan vatanparvarlik, ya'ni o'z Vatanga, uning tarixiy merosi va an'analariga muhabbat ularning har qanday tahdidlardan himoya qilishga ishonchli asosdir.

Adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикасининг «Таълим тўғрисида»ги қонуни. –Тошкент, “Ўзбекистон”, 2020. (Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 05.05.2018 й., 06/18/5430/1164-сон.
2. “Маънавий ҳаёт” журнали, 2021 йил 1-сон “Огоҳлик кўнғироғи” мақоласи. 7-бет.
3. Раҳимов Б., Нарзиева Н. “Педагогик маҳорат” ўқув қўлланмаси. – Гулистон шаҳри, 2021 йил, “Sirdaryo Print Roman” босмаҳонаси, 102-бет.
4. Мирзиёев Ш.М. “Танқидий таҳлил, қатъий тартиб интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак.” – Т.: “Ўзбекистон”, 2017. – Б.104.

РЕЗЮМЕ

Мақолда бо'lajak o'qituvchilarni mahalliy tarixiy materiallar vositasida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayoni modelini takomillashtirish haqidagi fikrlar ifodalangan.

РЕЗЮМЕ

В статье выражены идеи по совершенствованию модели процесса патриотического воспитания будущих педагогов средствами краеведческого материала.

SUMMARY

The article expresses ideas about improving the model of the process of educating future teachers in the spirit of patriotism by means of local historical materials.